



TEXNIK OLIY O'QUV YURLARIDA TILLARNI PARALLEL O'RGANISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Sattorova Umidaxon Uktam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti til va adabiyot yo'nalishi

4.24-guruh 2-kurs talabasi

Tel raqam: +998883890018

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnik soha mutaxassislarini chuqur kasbiy bilim bilan birgalikda bir necha tillarda erkin muloqot qila olish, til va kasbiy fanlar integratsiyasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *texnik oliy ta'lim, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, integratsiya, texnik yo'nalish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации образовательного процесса на основе интеграции языковых и профессиональных дисциплин с целью оснащения технических специалистов глубокими профессиональными знаниями и способностью свободно общаться на нескольких языках.*

Ключевые слова: *высшее техническое образование, профессиональная компетентность, инновационное производство, интеграция, техническое руководство.*

Annotation: *This article discusses the theoretical and practical aspects of organizing the educational process based on the integration of language and professional disciplines, in order to equip technical specialists with deep professional knowledge and the ability to communicate fluently in several languages.*

Keywords: *technical higher education, professional competence, innovative approach, integration, technical direction.*

Bugungi globallashuv sharoitida texnik oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonida ko'p tillilik va kasbiy kompetentlik muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ona tili, ingliz tili va kasbiy terminologiyani parallel o'zlashtirish zaruriyati ortib bormoqda. Shu sababli tillarni parallel o'rganish asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik oliy ta'lim – iqtisodiyot taraqqiyotining asosidir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 20-iyun 2024-yilda Oliy ta'lim va muhandislik kadrlar tayyorlash bo'yicha videoselektor yig'ilishida quyidagi fikrni aytganlar: "Iqtisodiyotimizning jadal rivoji uchun zamonaviy texnologiyalarni yaxshi biladigan,






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuqori malakali muhandis va texnik kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega”.⁴⁹ Shu bois texnik oliy ta’lim muassasalari nafaqat nazariy bilimlarni, balki talabalarni amaliy ko’nikmalar bilan ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratishi lozim. Texnik mutaxassis uchun kasbiy kompetentlik nafaqat texnologik bilimlar, balki kasbiy muloqot, texnik hujjatlar bilan ishlash, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish imkonini ham qamrab oladi. Texnik oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va texnologik bilimlar berilishi bilan birgalikda, bir necha tillarni ham o’qitilishi talabalarning kelajak kasbiga bo’lgan salohiyatini oshirishga o’z hissasini qo’shadi. Shuningdek, xorijiy til o’qitish metodikasida qo’llanilgan ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi – bu umumiy ingliz tili o’qitishdan farqli ravishda, ma’lum bir kasbiy yo’nalishga tegishli til kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.⁵⁰ Texnik oliy ta’lim muassasalaridagi arxitektura sohasida bu yondashuv mutaxassislarning texnik terminologiyani to’g’ri tushunishi, loyiha hujjatlarini ingliz tilida o’qish va tahlil, xalqaro me’moriy tanlovlarda ishtirok etish hamda xorijiy hamkorlar bilan samarali muloqot o’rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, ESP yordamida arxitektorlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash bugungi kunda nafaqat ta’lim tizimining, balki butun sohaning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida qaraladi. ESP metodikasi nafaqat til o’rgatishga, balki kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga, amaliy loyihalar asosida o’rganishga, real me’moriy vaziyatlarni modellashtirishga va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Texnik oliy o’quv yurtlarida til o’rganishni oshirish maqsadida yana bir yondashuvni aytib o’tsak, D.Nunan tomonidan asoslangan TBL (Task-Based Learning) yondashuvi ta’lim jarayonida talabani real kasbiy vazifalarini bajarish orqali bilim egallashini nazarda tutadi.⁵¹ Ushbu yondashuv texnik oliy ta’limda, ayniqsa energetika sohasida, simulyatsiya dasturlari orqali amalga oshiriladi. ETAP (Electrical Transient analyzer Program) simulyatsiya dasturi elektroenergetika yo’nalishida real elektr tarmoqlarini modellashtirish va tahlil qilish imkonini beradi, bu orqali talabalar elektr uzatish liniyalari, transformatorlar, yuklamalar va himoya tizimlarini virtual muhitda loyihalaydi. Bu jarayonda ular qisqa tanishuv, yuklama taqsimoti, energiya yo’qotishlari kabi real muhandislik muammolarini hal qiladi. Natijada, talaba nazariy bilimni bevosita kasbiy faoliyatga yaqin vazifa orqali o’zlashtiradi, bu esa TBL yondashuvining asosiy omiliga to’liq mos keladi. Qo’shimcha sifatida, Komilov va Asanova O’zbekiston energetika tizimlarini boshqarish va integratsiya qilishda matematik modellashtirish va simulyatsiya

⁴⁹ Mirziyoyev, Sh.M. Oliy ta’lim va muhandislik kadrlar tayyorlash masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishi nutqi. — 2024-yil 20-iyun. — Gidroproekt axborot xizmati. — Elektron manba: gidroproekt.uz

⁵⁰ Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press.

⁵¹ Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press, pp. 1–18.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yondashuvining zarurligini ko'rsatgan.⁵² Bu usullar talabalar uchun nazariyadan amaliyotga uzluksiz o'tishni ta'minlaydi va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar ham ayni axborot texnologiyalari rivojlangan davrda texnik oliy ta'lim muassasalarida tillarni parallel o'rganishda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida juda o'rindir. Bu dasturlar orqali talabalar nafaqat kasbiy termin va tushunchalarni oson topishlari, balki ularni boshqa tilda qanaqa ishlatilishini tez va samarali o'rganishi, real kasbiy vaziyatlarga mos til ko'nikmalarini shakllantirishda yordamchi sifatida foydalanishlariga imkoniyat yaratadi. Fikrimizning dalili sifatida, STEM ta'lim yondashuvini keltirsak bo'ladi, bu yondashuv "science", "technology", "engineering", "mathematics" kabi tushunchalarning bosh harflaridan tuzilgan bo'lib, talabaning kasbiy va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhimdir. Misol uchun, texnik oliy o'quv yurtlarida muhandislik, IT, energetika sohalarida kasbiy loyihalar, texnik hujjatlarni boshqa tilda bajarish ko'nikmasi shakllanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu o'rinda, R.Mavlonovning fikrini keltirib o'tsak, oliy ta'limda fanlararo integratsiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni real faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.⁵³ Shuni aytish joizki, ESP yondashuvi o'quv jarayoniga kiritilganda arxitektorlarning nafaqat til, balki kasbiy kompetensiyasi ham sezilarli darajada rivojlanadi. Maxsus yo'nalishdagi ingliz tili o'quvchilarda kasbiy identifikatsiyani shakllantirib, ularni xalqaro loyihalar, grantlar va tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. TBL yondashuvi esa vazifalarni bajarish jarayonida talabalar muammoni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirdi, talabalar real vazifalar orqali faol qatnashadi, mustaqil ishlash va guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. O'zbekistonda texnik oliy ta'lim muassasalarida bu kabi innovatsion texnologiyalarni kengroq targ'ib qilish va kasbiy bilimlar bilan birgalikda tillarni o'rganishni yanada oshirish talabalarning kasbiga bo'lgan salohiyatini yanada yuksaltirishga, ilmiy maqolalar, dasturiy simulyatsiyalar va xalqaro hamkorlikda ish olib borishiga, o'z kasbining professional bo'lishiga katta hissa qo'shadi.

Xulosa o'rinda, texnik oliy ta'lim muassasalarida tillarni parallel o'rganish ESP, TBL va loyihaviy yondashuvlar orqali talabaning kasbiy terminologiyasi va kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. Til fan bilan integratsiyalashadi va amaliy kompetensiyalar shakllanadi, talaba global muhitda raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyor bo'ladi. ESP yordamida arxitektorlarning kasbiy rivojlanishi ta'minlash – zamonaviy ta'limning strategik yo'nalishlaridan biridir. Maxsus yo'nalishli til o'qitish nafaqat til mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ham ta'minlaydi. Kelgusida ESP dasturlarini arxitektura

⁵² Komilov, A., & Asanova, B. (2024). O'zbekiston energetika tizimlarini boshqarish va integratsiya qilishda matematik modellash va simulyatsiya yondashuvi. *Innotex Journal*.

⁵³ Mavlonova R. *Pedagogika*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.





fakultetlarida modullashtirilgan shaklda, loyiha va amaliy mshg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avazov G‘.B. (2024). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ komponentligini rivojlantirish metodlarining pedagogik-psixologik imkoniyatlari. *Inter education & globl study*, (10), 50-57.
2. Komilov, A., & Asanova, B. (2024). O‘zbekiston energetika tizimlarini boshqarish va integratsiya qilishda matematik modellashtirish va simulyatsiya yondashuvi. *Innotex Journal*.
3. Mavlonova R. *Pedagogika*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta’lim va muhandislik kadrlar tayyorlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi nutqi. — 2024-yil 20-iyun. — *Gidroproekt axborot xizmati*. — Elektron manba: gidroproekt.uz
5. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. Cambridge University Press.
6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.
7. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press, pp. 1–18.

